

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy markazi

Xotin - qizlar huquqini himoya qilish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi bo'yicha

Bayonnomma №

12-may 2024

RIAKIIATM

Raislik qiluvchi: TOLIPOVA GULZIRA

Kotiba: ALIMBAYEVA GULHAN

Qatnashdi: Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy markazi o'rta va kichik tibbiyot xodimlari va shifokorlar.

Kun tartibi: Xotin - qizlar huquqini himoya qilish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi.

ESHITILDI:

So'zga markaz ma'naviyat ishlari bo'yicha ma'sul Tolipova Gulzira so'zga chiqtilar va davlatimiz tarafidan ayollarga berilayotgan sharoitlar ayollarga nisbatan qilingan zo'ravonlikka qarshi kurashish maqsadida davlatimiz qonunchilik palatisa ishlab chiqilgan yangi qonun loyixasi xaqida so'z yuritdi: Qonun loyihasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqildi. U xotin-qizlarni turmushda, ish joyida, ta'lim muassasalarida va boshqa joylarda tazyiq hamda zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Jumladan, loyihada tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir chora-tadbirlar, bunday qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik, tazyiq hamda zo'ravonlikni boshidan o'tkazgan shaxslarni himoya qilishni, shuningdek jamiyatda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday namoyon bo'lishiga murosasiz munosabat muhitini qaror toptirishni nazarda tutuvchi protsessual kafolatlar ko'zda tutilgan.

Loyihada xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari aniqlangan. Bu sohadagi vakolatli organlar belgilangan.

Tayanch tushunchalar alohida bayon etilgan. Xususan "tazyiq", "zo'ravonlik", "ruhiy zo'ravonlik", "jismoniy zo'ravonlik", "jinsiy zo'ravonlik", "iqitisodiy zo'ravonlik", "tazyiq va zo'ravonlik jabrlanuvchilari", "himoya orderi" kabi tushunchalarning mazmuni ochib berilgan.

Kelgusida Qonun loyihasi doirasida zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish dasturi ishlab chiqiladi. Bunda loyihamning zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan qoidalari muhim rol' o'ynaydi.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda bevosita ishtirok etadigan vakolatli organlarning vakolatlari ta'riflangan. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarning turlari qayd etilgan.

Loyihada tazyiq va zo'ravonlikda jabr ko'rgan shaxslar uchun tezkor aloqaning ishlash tartibi belgilanmoqda. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarni maxsus reabilitatsiya markazlariga joylashtirish va ularni u yerda saqlab turish mexanizmi bayon etilgan. Ushbu tadbirlarni va loyihada bayon qilingan boshqa tadbirlarni moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan.

Bu sohadagi xorijiy tajriba asosida loyihada ichki ishlari organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga himoya orderini berish mexanizmi joriy etilmoqda. Ichki ishlari organlari tomonidan jabrlanuvchilarga himoya orderi berish tartib-taomili va oqibatlari belgilab beriladi. Himoya orderi talablari buzilganda shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi nazarda tutilmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili hozirgi vaqtida zo'ravonlikka, xususan, maishiy zo'ravonlikka, xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish muammosiga katta e'tibor berilayotganini ko'rsatmoqda. Bu masalani tartibga soladigan maxsus qonunlar 120 dan ortiq mamlakatda qabul qilingan. Ayni chog'da, O'zbekiston, Belarus', Turkmaniston va Rossiya bundan mustasno.

Qonunni tayyorlash doirasida xalqaro deklaratsiyalar o'rganildi. Shuningdek, Avstriya, Braziliya, Malayziya, Qozog'iston, Ukraina, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Moldova, Litva kabi mamlakatlarning normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Xalqaro amaliyotni, shuningdek tayyorlanayotgan qonunning ta'sir doirasini hisobga olib, loyihada qonun normasi tatbiq etiladigan joy ko'lami kengaytirilgan. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlik va tazyiqdan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar qamrovini tubdan oshirishga ko'maklashadi.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi, avvalambor, jamiyatda, turmushda, ish joyida, ta'llim muassasalari va boshqa joylarda xotin-qizlarga nisbatan hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, loyihada xotin-qizlarga nisbatan har qanday tazyiq va zo'ravonlik hollarining oldini olish mexanizmi qonunchilik darajasida mustahkamlab qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, loyihada bu borada vakolatli davlat organlari javobgarligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida tegishli tuzilmalarda ijtimoiy sheriklik mexanizmi belgilab olinishi ko'zda tutilgan.

Buning natijasida jamiyatning zo'ravonlik va tazyiq o'tkazishga munosabati o'zgaradi. Aholining turli qatlamlari bunday salbiy holatlarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

Qaror qabul qilindi

1. tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda moslashtirish tizimini takomillashtirish hamda davlat hisobidan moliyalashtirish;
2. tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning xavfsizligini, jismoniy va ruhiy reabilitatsiyasini hamda moslashuvini ta'minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish;
3. xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish hamda ular bilan o'zaro munosabatlar madaniyatini yuksaltirish bo'yicha mulkchilik shakllaridan qat'i nazar barcha idora va tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;
4. xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash;
5. tazyiq va zo'ravonlik holati qayd etilgan oilalar, ish joylari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqa ob'ektlarning hisobini yuritish, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki uni sodir etgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlash, ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish hamda xulq-atvorini o'zgartirish tizimini va choralarini takomillashtirish;
6. mamlakatlarda tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash choralarini ko'rib borish;

Markaz direktori professor

I.S.Razikova